

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 51
(66488)

2004 yil
20 dekabr - 26 dekabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOY HARAKATI.

ERTAGA AFSUS QILMANG...

Bizning Xorazmda 700 mingga yaqin xotin-qizlar istiqomat qilishsa, ularning 300 mingdan ortig'ini onalar tashkil qilishadi. Shu kunlarda respublikamizdagi turli bolalar nashrlariga obuna jarayonini kuzatar ekanman, o'zimning o'quvchilik paytlarim yodimga tushdi. Bog'ot tumani, Beshariq qishlog'ida joylashgan maktabda tahsil olganman. Paxta mavsumida ishlagan pullarimizga sinfimizdagi 31-o'quvchining barchasi har yili «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishardi. Bu borada

talabchanlik nihoyatda kuchli edi. Har bir inson faqatgina yeyish va kiyish uchun emas, balki o'zining teran aqli, tafakkuri, ma'naviy barkamolligini ham tinmay oshira borsagina mukammal insonga aylanadi. Buning uchun ko'p va xo'p o'qishi, puxta bilimga ega bo'lishi lozim. Shundagina hayot degan xilqatni tasavvur qilib, uning barcha mashaqqatlarini yenga oladi. Hamisha otalarga, bolangiz qanday gazeta va kitob o'qiydi, nimalarga qiziqadi, kimlar bilan do'stlashadi, buni albatta kuzatib

boring, degim keladi. Farzandingiz bugun «Tong yulduzi» gazetasi o'qiyaptimi, demak ertaga ishonchi baland, tushunchasi kengayib bormoqda, do'stlaridan o'rnak olib, tinmay dars tayyorlamoqda, degim keladi. Demak, siz yaxshi o'g'il yoki qiz o'stirayapsiz. Onajonlar, dil mulkimda siz uchun asragan eng sara so'zlarim: farzandingiz tarbiyasiga chuqur yondoshing, ertaga afsus qilmaysiz.

Shakarjon XO'JANOVA.
Viloyat xotin-qizlar
qo'mitasi raisi.




Bu maqolamizning bizning maktabimizga nisbat qilishadi. Nega, deysizmi? Keling, yaxshisi bir boshdan so'zlab beraqolay. Maktabimiz ta'mirdan

Zirapcha to'lmaydi. Talab degan narsa umuman yo'q. Maktabimizning tashqi ko'rinishiga qiziqib shu yerda o'qish ishtiyoqidagi o'quvchilar yog'ilib

USTI YALTIROQ, ICHI QALTIROQ MAKTAB

chiqqan, zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan. Kompyuterlari yangi. Tadbirlar o'tadigan kattagina zahimzga kirsangiz havaslangiz keladi. Sport zalim ham barcha talablarga javob beradi. Kutubxonamizda o'zbek va rus tillaridagi kitoblar juda ko'p va alohida tartib bilan terib chiqilgan. Oshxonamizga kirsangiz ozodaligi yurib bir xildagi idish-tovoqlarni ko'rib bahri dilingiz ochilib ketadi. Yam-yashil chim bilan qoplangan hovlisidagi o'rindiqlarni ko'rib, o'tirib dam olingiz kelib ketadi. Bir so'z bilan aytganda, bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Gapning ochig'i, qulayliklari uyimdagidan ham zo'r. Ammo bir lekini bor-da. Ayrim ustozlarimizning bilim berishlaridan ko'nglimiz

ketishdi. Yaqinda ular bilan suhbatlashganimda ayrimlari bu maktabga kelganidan afsuslanib, «Avvalgi maktabimiz o'quvchilari sho'x bo'lsalar-da,



o'qituvchilarimizning qattiqqo'lligi bois darslarda tartib saqlab o'tirishardi» deyishsa, yana boshqalari, bu yerda mazza ekan, uy vazifalarini bajargan yoki bajarmaganimiz bilan hech kimning ishi yo'q ekan, deyishdi. Maktabimizning nima uchun bunday atalishi sababini endi anglagandirsiz?!

INOYATXON,

Toshkentdagi 162 - maktabning 8 - «V» sinf o'quvchisi.

MAJBURIY OBUNA



Har yili maktabimiz o'quvchilari o'zlari sevgan, yaxshi ko'rib o'qiydigan nashrlarga obuna bo'lishardi. Kimdir uyiga, yana kimdir maktab manziliga yozilib, sinfdoshlari bilan birgalikda mazza qilib o'qishardi.

Bu yil esa «Obuna - 2005» dasturiga ko'ra har bir sinfga gazeta va jurnallarni taqsimlab berishdi.

Sinfirmiz o'quvchilari yozilishlari shart bo'lgan nashrlar orasida biz maroq bilan o'qiydigan sevimli gazetamiz «Tong yulduzi» ning

yo'qligini ko'rib ajablandik. Sababini so'rasak, maktabimiz direktori, bular endi yuqori sinf o'quvchilari hisoblanishadi, bolalar gazetasini o'qishsa to'g'ri bo'lmaydi, debdilar. To'g'ri, maktabimiz rahbarini ham tushunamiz. Ularga ham yuqoridan topshiriq va rejalar kelgan. Lekin ularning rejalarini tufayli biz yil davomida o'z gazetamizni emas, bizni qiziqitmaydigan boshqa nashrni olishga majbur bo'lsak, adolatdan bo'ladimi? Axir «Tong yulduzi» Respublika bolalari va o'smirlari nashri sanaladi-ku! Yoki biz o'smirlik yoshidan o'tib qoldikmi?

Xo'sh, Sizlar-chi, qanday gazeta o'qish yoshidasiz, aziz tengdoshlarim?

Dilshod G'AFUROV,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
169 - o'rta maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.

Aziz tengdoshlarim, men bu yil «Tong yulduzi» gazetasiga birinchi yarim yillik uchungina obuna bo'lgandim. Har haftada eshik qoqib kelib turgan gazetam kelmay qolganida bir narsasini yo'qotgan odamdek bo'lib qoldim va tezda yilning ikkinchi yarmi uchun ham obuna bo'lib keldim. Hozir uning har bir sonini maroq bilan o'qib borayapman. 2005 yil uchun ham bir yilga to'liq obuna bo'ldim. Yodingizda bo'lsa, «Shunday gazeta ham bormi?» nomli maqolam chop etilgan, unga tengdoshlarimizning gazeta va jurnallar o'qimay qo'yishlariga ma'lum ma'noda tuman aloqa bo'limida ishlaydigan amaki va xolalar-u maktab o'qituvchilari ham sababchi ekanliklari haqida fikr yuritgandim. Men bu yil maktab «Kamalak»

sardori etib saylandim va obuna ishiga o'z hissamni qo'shishga ahd qildim. Maktabdoshlarimga «Tong yulduzi» gazetasi, uning mazmun-mundarijasi haqida batafsil gapirib berdim. Gazeta mutolaasi bilimimizni yanada boyitishga, dunyoqarashimizni kengaytirishga, so'z boyligimizni yanada oshirishga xizmat qilishi haqida gapirdim. So'zim yakunida eng ko'p obuna bo'lgan sinfga sirli sovg'am borligini alohida ta'kidladim. Hozirgi kunda maktabimizda obuna qizg'in davom etmoqda. Uning natijalari, sirli sovg'am qaysi sinfga nasib etgani haqida keyinroq hikoya qilaman.

Nargizaxon SAYDULLAYEVA,
poytaxtdagi 296-maktab
«Kamalak» sardori.

SIRLI SOVG'AM BOR



MURUVVAFI INSONLAR BOR BO'LSIN!

Hayot turli tasodiflarga boy. Bir qarasang u senga kulib boqadi, bir qarasang boshingga biror tashvish solib, bardoshingni sinagandek bo'ladi. G'am-tashvishli kunlarda odamlardan mehr kutib, yupanch izlab qolarkansan kishi...

Yaqinda juda mehnatsevar, mehribon adajonimning qo'llari og'rib qoldi. Avvaliga ular o'tib ketar, deya bunga parvo ham qilmadilar. Lekin kun o'tgan sayin og'riq ham kuchayaverdi. Noiloj shifokorning huzuriga bordilar. Ular jarrohlik yo'li bilangina davolash mumkinligini aytdilar. Onamning bir oyoqlari shifoxonada qolib ketdi, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Mahallamiz odamlarining mehri, qarindoshurug'larimizning oqibatli

ekanliklari shunday og'ir kunlarda bilindi. Qo'ni-qo'shnilarimiz dadamning holidan tez-tez xabar olib turishdi, qarindoshlarimiz, ayniqsa, kichik amakim hammadan ko'ra ko'proq jon kuydirdilar. Oyijonimning qo'llari esa duodan bo'shagani yo'q. Yaqinlarimizning mehribonligi, oyijonimning duolari va albatta Ollohning marhamati bilan dadajonim sog'ayib ketdilar. Uyga qaytganlaridan keyin ham ikki-uch oygacha odamlarning keti uzilmadi. Dadajonim ularning qilgan yaxshiliklarini yaxshi kunlarida qaytarish niyatidalar.

Mazkur yilimiz tildagina emas, amalda ham mehr va muruvvat yili bo'lganini dildan his qilib, rahmat sizga yaxshi olamlar, degim keldi.

*Ma'fura JAMOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
29 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.*



savollarga javob oldim. Deputatlar-davlat hokimiyati vakillik organlarida ish olib boruvchi xalq vakillari bo'lib, ular saylov yo'li bilan 5 yil m u d d a t g a



DEPUTATLAR KIMLAR O'ZI?

Ayni kunlarda kattalarning gap-so'zlariga quloq tutsangiz ham, televideniye va radio orqali ham, gazeta va jurnallarda ham yaqinda yurtimizda bo'lib o'tadigan saylovlar haqida juda ko'p gapirishyapti, yozishyapti. Men ham bu jarayon haqida juda-juda bilgim keldi va tarix fani o'qituvchimizdan deputatlarning kimligi haqida so'radim. Lalixon opaning hikoyasidan o'zimni qiziqtirgan ko'plab

saylanishar ekan. Xalqdan tegishli tashkilotlarda ish olib borish uchun vakolat olishar ekan. Yana, oliy majlis deputatligiga 25 yoshga, mahalliy kengash deputatligiga 23 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanishlarini, ularni 18 yoshdan yuqori bo'lgan fuqarolar saylashini ham bilib oldim. Deputatlar xalqning ishonchli vakili bo'lib, ularga qo'ldan kelgancha yordam berishar, muammolar yechimini

topishda ko'makdosh bo'lishar ekan. Demak, ular o'ta fidoyi, harakatchan, o'zgalar tashvishini o'ziniki deb biladigan insonlar bo'lishi lozim ekan. Bir so'z bilan aytganda, deputatlar bizning do'stimiz ekanlar.

Men ham hozirdanoq puxta bilim olib, o'qib-o'rganib, komil inson bo'lishni ko'nglimga tugib qo'ydim. Shunda meni ham deputat qilib saylashadi.

*O'tkir QO'CHQOROV,
poytaxtdagi 316 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.*

5-sinfga o'tganimizda ko'pchilik ustozlarimiz o'zgarib, alohida fanlar bo'yicha yangi o'qituvchilar kelgan, barchamizda ular bilan uchrashib, tanishish ishtiyoqi baland edi. Geografiya fani o'qituvchisi Ollohberdi aka ham yangi o'qituvchilarimizdan bo'lib, Jizzax viloyatining tog'li tumanlaridan kelgan

qizlarning jahlimiz chiqib, ular bilan tez-tez janjallashardik. O'qituvchimiz esa bunday holatlarga umuman e'tibor bermas, barcha bolalarga birdek munosabatda bo'laverardi. Ba'zan hayron bo'lardik. Nega muallimimiz mazax qilayotgan bolalarni adabini

PADARINGIZ — USTOZINGIZ

ekanlar. O'zlari juda shirinso'z, muloyim, har birimizga sizlab murojaat qilib, dilimizdagini tezda tushunib olardi. Dars o'tayotgan paytlarida ular shevada ko'proq gapirganlari bois, ayrim sinfdoshlarimiz o'qituvchimizning ustidan kulib o'tirishardi. Bundan biz

berib qo'ymaydi-ya, xuddi eshitmagandek. Meridian chiziqlari, yer shari, atmosfera bosimlari, geografik kengliklar to'g'risidagi saboqlarini jon-qulog'imiz bilan tinglardik. Geografiya fani eng qiziqarli fan ekanligini ustozimiz bizga o'z saboqlari davomida isbotlab bergandi. Yil ham tugadi 6-sinfga o'tdik. Sevimli ustozimiz boshqa joyga ishga o'tibdilar. Endi bizga ushbu fandan qattiqqo'l, talabchan o'qituvchi dars o'tadi. Ularning berayotgan saboqlarini 5-sinfidagi ayrim botirlarimiz ham miq etmasdan tinglaydilar. Tanaffus paytida esa bir-biriga, eh... Ollohberdi akani qadri juda bilinadi-da, deganlarini va qilgan ishlaridan ming bir pushaymon bo'lishayotganini guvohi bo'ldim. Aziz tengdoshlarim, nasihat qilayapti demang-u, lekin hech qachon ustozlaringizni ustidan kulmang, bu holat xuddi padaringizning ustidan kulayotganingiz kabi juda xunuk holatdir.

*Mohinur HAYDAROVA,
o'quvchi.*

ULAR BIR XIL KUCHUK EDI

Ikki ukam va men ko'zlari ochilmagan ikkita kuchukcha boqib oldik. Ular biram yoqimtoy edilar-ki... Ikkisiga ham nom tanladik. Biriga Simba, ikkinchisiga esa Bimba deb nom berdik. Sekin-asta ular katta bo'la boshladi. Ikkovi baravar bo'lsa-da, ularning fe'l-atvori boshqa-boshqa edi. Ularga bir idishda ovqat bersak, Simba ovqatni oldiga tortib olib, Bimbaga qoldirmay hammasini o'zi yeb qo'yardi. Bimba yuvosh, Simba esa o'ynoqiroq edi. Ukalarim bilan Bimba beozor o'ynar, Simba esa kimning qo'lida yegulik bo'lsa tashlanaboshladi. Ko'chada o'ynab yurgan bolakaylarga ham hamla qilishga o'tdi.

Bir kuni men dasturxon yozib, ustiga non qo'ydim va piyolalarni




yuvishga ketdim. Kelib neko'z bilan qarayki, dasturxondagi non yo'q. Chetroqda Simba nonni yeyayotgan ekan. Boshqatdan dasturxon yozdim. Lekin Simbani masalasini hal qilish kerakligini ko'nglimga tugib qo'ydim.

O'ylay-o'ylay Simbani ovchi tog'aga berib yubordik. Aniq bo'lishicha, keyinchalik Simba qopag'on it bo'lib ketibdi. Ovchi tog'a esa uni otib tashlabdilar. Buni eshitib baribir Simbaga achindim.

Bir xil yoshdan katta qilgan kuchukchalarimiz Simba va Bimba bir xil sharoitda o'sishsa ham, biri yaxshi, ikkinchisi qopag'on bo'lib o'sishdi. Nima uchun? Siz nima deb o'ylaysiz, aziz tengdosh?

*Nazokat AHMADJONOVA,
Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 7-maktab o'quvchisi.*



(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

YERNING TUZILISHI

Aziz o'quvchim! Men Sizga Yerning paydo bo'lishi, unda yashagan bahaybat kaltakesaklarning ba'zi turlari, ularning qirilib ketishiga oid ayrim g'oya va fikrlarni aytib o'tdim, xolos.

Kurrai zamin paydo bo'libdiki, ne-ne olimu fuzalolar bu haqida o'z fikrlarini aytib o'tishgan. Zaminu zamon sinovlaridan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelgan fikrlarni to'plasak, bu haqda ulkan kitoblar bitilishiga hech qanday shubha yo'q. Men Sizni zukko o'quvchim, deb bilganim bois, aytilgan fikrlarim ilm daryosidan tomchi ekanligini o'zingiz ham yaxshi his qilib turgan bo'lsangiz kerak. Zero, ilm ummoni yana shu tomchilardan hosil bo'ladi. Ilm ummonidan bahramand bo'lgan odam esa aqlli bo'ladi. Aql esa odamni fozillikka yetaklaydi. Fozil odam ko'p narsani biladi. Ko'p bilgan odam esa yana ko'p narsani bilmaganini anglaydi va unda bilishga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. Sizning kuchli bilishga intilishingiz, tabiatga bo'lgan qiziqishingiz menda kuchli havas uyg'otdi. Shu bois Sizga ana shu paydo bo'lgan Yerning tuzilishi haqida ayrim fikrlarni aytib o'tishni lozim deb topdim.

Yerning tuzilishi haqidagi

dastlabki fikrlar ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Chunki, qadimgi odamlar asosan ovchilik bilan shug'ullanishgan. Tevarakatdagi narsalarni bilishgan xolos. Yillar, asrlar o'tishi bilan qabilalar, elatlar orasida bordikeldi munosabatlari tiklangan, ilm-fan rivojlana boshlagan.

«UCHINCHI SAYYORA» BO'YLAB SAYOHAT

Ilm-fan rivojlangan davlatlarda akademiyalar tashkil qilingan. Akademiya olimlari yulduzlarning harakati, Yerning tuzilishi, xandasa, mantiq va boshqa qator fanlarga oid izlanishlar olib borishgan. Masalan, qadimgi Gresiyada ham bir qancha maktablar yuzaga kelgan. Ana shu maktablar olimlarining Yerning tuzilishi haqidagi fikrlari tabiiyki, har xil bo'lgan. Masalan, miloddan avvalgi VII asrda yashagan olim Fales Yerni suv bilan o'ralgan yassi jism bo'lsa kerak, degan fikr bildirgan. Bu fikr bir asr o'tgandan so'ng boshqacharoq tus oldi. Falesning shogirdi, Anaksimandr (mil. av. 611-545) koinotning geosentrik modelini yaratdi va ilk geografik xarita tuzdi. U o'z xaritasiga asosan Yerni silindrik shaklda tuzilgan deya ta'rif berdi. Biroq, bu g'oya uning deyarli zamondoshi buyuk matematik olim Pifagor tomonidan rad etildi. Pifagor Yer shar shaklida tuzilgan degan fikr

bildirdi. Oradan ikki asr o'tib, Aristotel bu fikrni to'g'ri ekanligini isbotlab berdi va u ham Yer shar shaklida tuzilgan fikrni quvvatladi.

Ana endi ana shu shar shaklida tuzilgan Yerni nima ko'tarib turadi, degan jumboqni echish kerak edi. Bu haqda juda

ko'plab afsona va rivoyatlar to'qildi, fikrlar aytildi.



Qizig'i shundaki, har bir xalq bu haqda o'z tasavvuriga ega edi. Jumladan, qadimgi hindlar Yerni ulkan toshbaqa ustidagi fillar ko'tarib turadi, deb hisoblashsa, boshqa xalqlar Yerni fillar emas, balki ulkan ho'kiz shoxida ko'tarib turadi, deb o'ylashgan. Ho'kizning shoxi og'rib, boshqa shoxiga Yerni ko'tarish uchun olganida Yer qimirlaydi, deb tushuntirishgan. Antik davr olimlari bu fikrlarning barchasi

yolg'on ekanligini, Yerni hech

Mustaqil dars

qanday jonzo turmasligini isbotlab berishgan. Ular barcha osmon jismlari Yer atrofida aylanadi, degan fikr bildirishgan. Yerning shar shaklida tuzilganligini isbotlagan Aristotel ham shu fikrda edi. U o'z fikrlariga

asoslanib, olamning tuzilish sistemasining modulini yaratdi va uning markaziga Yerni joylashtirdi.

Uning fikricha, Yer atrofida qolgan Osmon jismlari va Quyosh aylanadi. Aristotelning bu fikri uning izdoshlari tomonidan rivojlantirildi. Masalan, qadimgi grek astronomi Klavdey Ptolomey (er. av. 90-160 y.) bu g'oyani takomillashtirib, olam sistemasining yangi modulini yaratdi. U yaratgan modul markazida ham Yer joylashtirilgan bo'lib, uning atrofida Oy, Quyosh va o'sha davrda ma'lum bo'lgan beshta sayyora harakatlanishi ko'rsatilgan. Ptolomey sistemasiga muvofiq harakatlanuvchi osmon jismlari aniq ko'rsatilgan. O'rta osiyolik buyuk allomalar Umar Hayyom, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy ham Yerning tuzilishi va uning atrofida harakatlanuvchi osmon jismlari haqida juda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, Beruniy o'zi yasagan teleskop orqali 1029

ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini tuzgan. Yulduzlarning joylashishini aks ettiruvchi jadvallar o'sha davr uchun ham juda muhim edi. Chunki, bir davlatdan ikkinchi davlatga savdo-sotiq uchun yo'lga chiqqan karvonlar ko'pincha

yulduzlarga qarab yo'l bosardi. Yulduzlarga qarab toleni aytish o'sha davr munajjimlarining asosiy ishlaridan biri hisoblangan. Keling, shu erda men sizga yordamlashay. Bolalar, yulduzlarning o'zi nima, degan savolingizga ham qisqacha bo'lsa-da, javob berib ketaylik. Buni qarangki, bolalar, yulduzlar qizigan gazlardan iborat yorug'lik sochib turuvchi osmon jismlari ekan. Mana, Siz havo ochiq paytida kechqurun taxminan nechta yulduzni ko'ra olasiz? Savol sal g'alatiroq bo'ldi-a? Savolni sal o'zgartirsam. Osmondagi yulduzlarni hech sanab ko'rganmisiz? Sanog'iga yetib bo'lmaydi-ku, deysizmi? Ha, bu deyarli haqiqatga yaqin javob. Chunki ular shu qadar ko'pki, hisoblayman deb yanglishib ketasan. Ammo shunday bo'lsa-da, inson oddiy ko'z bilan taxminan 3-6 ming, teleskoplar orqali esa bir necha ming, hatto millionlab yulduzlarni ko'rishi mumkin ekan.

(Davomi bor.)

Bahrom AKBAROV.



BAHSLASHAMIZ

Men Sevara Ahmadxo'jayeva 122-maktabning 6- «A» sinfida o'qiyman. Sinfimiz o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasiga har yili birinchilardan bo'lib obuna bo'lishadi. Unda chop etiladigan qiziqarli yangiliklar, maqolalar va she'rlarni muntazam o'qib boramiz, gohida bahslashamiz ham. Gazetaga bo'lgan qiziqishimiz sinfdoshlarimni




Sevara AHMADXO'JAYEVA,
Toshkent shahri, 122-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.

BIR OG'IZ SHIRIN SO'ZGA

Mastun etar kishini,
Bilib qilar ishini,
Yig'ar aql-u hushini,
Bir og'iz shirin so'zga.
Bulbullar sayrashadi,
Ko'ngillar yayrashadi,
Jilmaysang yarashadi,
Bir og'iz shirin so'zga.
Fegmasang chaqmas chayon,
Keltirmas senga ziyon,
Inidan chiqar ilon,
Bir og'iz shirin so'zga.

BOLALAR SPORTI



Bugun siz futbalsevar mushtariylarimizga Mirjalol Qosimov, Andrey Pyatniskiy, Valeriy Kechinov, Shuhrat Maqsudov, Nikolay Shirshov, Yevgeniy Safonov, Andrey Akopyans, Server Jeparov, Yaroslav Krushelniskiy kabi yuzlab mahoratli

o'yinchilarni kamolga yetkazgan maskan - Respublika Oliy Mahorat futbol maktabi haqida so'z yuritamiz.

1972 yili Respublika olimpiya zahiralari maktabi nomi ostida tashkil etilgan o'quv dargohi 1982 yildan yuqoridagicha atala boshlandi. Tabiiy savol tug'iladi: bu yerda kimlar va qay usulda ta'lim oladi?

Dastlab, malakali murabbiylar respublikamizdagi futbol maktablaridan iqtidorli bolalarni saralab olib, ularni maxsus test sinovlaridan o'tkazishadi. Omadli yosh futbolchilar maktabga qabul qilinib, 8-9 yil mobaynida o'z futbol bilimlarini oshiradilar. Asosiy vazifa mamlakat o'smirlar va yoshlar terma jamoalariga nomzodlarni tayyorlash bo'lganligi uchun tanlovdan o'tgan bolalar endi saboq olish bilan birga turli xalqaro musobaqalarda Respublika sharafiga ham himoya qila boshlaydilar. O'z tengqurlari o'rtasida, albatta.

Hozirda maktabda 1987 yildan 1992 yilgacha bo'lgan oltita terma jamoa, shuningdek, 1992-1996—yillarda tavallud topgan bolalardan tuzilgan tayyorlov guruhlarini futbol sirasrorlarini o'rganishmoqda.

Terma jamoalarda 200 ga yaqin, tayyorlov guruhlarida esa 130 dan oshiq yosh futbolchi mashg'ulot olib

borishadi. Ma'lum bo'lishicha, 1992 yilda tug'ilgan bolalardan tuzilgan terma jamoa oktyabr oyining boshida Qozog'istonning Chimkent shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda

Vasilis Xadzipanagis, Ahrol Inoyatov, Bahodir Ibrohimov kabi vaqtida o'zbek futboli sharafiga himoya etgan yuqoridagi futbol yulduzlarining

murabbiylar haqida so'radik.

- Men dastlab xalqimizning sevimli futbolchilari Mirjalol Qosimov, Shuhrat Maqsudov, Murod Aliyevlarga charm to'p saboqlarini bergan murabbiy Yuriy

MIRJALOLNING MURABBIYSI KIM?

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida 1-o'rinni qo'lga kiritgan. Oradan bir oy o'tib, ular yana qozoq diyoriga yuzlandilar. Bu gal terma jamoamiz Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan murabbiy G.A. Kolantidi xotirasiga bag'ishlab tashkillashtirilgan turnirga tashrif buyurishdi. Bu terma jamoa, ya'ni murabbiylar Sergey Arslonov va Robert Gay shogirdlari kelgusi yilning aprel oyida bo'lib o'tadigan «Osiyo bolalar festivali»ga shu tariqa qizg'in hozirlik ko'rishmoqda. Maktab haqida gapirar ekanmiz, unda bir necha yillar katta murabbiy bo'lib ishlagan, qariyb ellik yildan buyon o'zbek futboliga munosib charm to'p ustalari yetishtirib bergan va berayotgan ustoz-murabbiy Sergey Arutyunovni tilga olmasak bo'lmaydi. 1998 yilda Xalqaro futbol uyushmalari Assosiasiyasining (FIFA) maxsus medali bilan taqdirlangan mutaxassis bu yil 82 yoshini qarshiladi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, «Sog'lom avlod uchun» ordeni sovrindori bo'lgan Sergey Arutyunov dastlab yetakchi jamoamiz «Paxtakor» klubida katta ustoz bo'lib ishladi. Gennadiy Krasniskiy, Birodar Abduraimov,

barchasi Sergey Arutyunovni ustoz deb bilishgan hamda bilishadi.

S.Arutyunovning yana bir o'ziga xos



jihati, u o'zi ishlayotgan Respublika Oliy mahorat futbol maktabida ulkan va tarixan boy qamrovli muzey tashkil etganligidir. Futbol maktabiga qabul qilingan har bir bola dastlab muzeyni tomosha qiladi. Yuragida shu Vatan futboliga, uning shavkatiga muhabbat uyg'onadi. Albatta muzeyda o'zbek futbolining o'tmishi, sharaflari onlari, qo'yingki, aksar unutilmas lahzalarini o'zida mujassam etgan ming-minglab suratlar, xilma-xil to'plar, turli medallar-u billur kuboklarni ko'rar ekansiz, o'zingizga juda katta ma'naviy ozuqa olganingizni sezasiz.

Biz Sergey Arutyunovdan futbol maktabida faoliyat ko'rsatayotgan

Gospodarchukka to'xtalmoqchiman. Tinib-tinchimas murabbiy bugunda 1994 yilda tug'ilgan bolalarga ustozlik qilmoqda. Shunisi qiziqki, futbolimiz yulduzi Mirjalol Qosimovning o'g'li Mirjamol ham aynan otasining birinchi ustozu Yuriy Gospodarchuk qo'lida kamol topyapti. Va men kichik Qosimovning ham harakatlarida to'p bilan chiroyli muomala qilish, otasini kabi iqtidor uchqunlarini ko'rmoqdaman. Xudo xohlasa, undan yaxshi futbolchi chiqadi.

Shuningdek, Murod Aliyev, Ahmad Ubaydullayev, Farhod Magomedov, Gennadiy Denisov, Valeriy Borodavkin, Viktor Moiseyev, Valeriy Sviridov kabi bir qancha talabchan murabbiylarimiz ishlashyaptiki, ertaga ularning shogirdlariga futbolimiz nufuzini bemalol ishonishimiz mumkin. Faqatgina bir muammo bor. Bizda ikkita qipikli, bitta asosiy va bir mashg'ulotlar maydoni mavjud. Bolalarimiz esa ko'p. Kelajakda maydonlarimizni ko'paytirmasak bo'lmaydi...

Akmal ABDIYEV.

Suratda: Mirjalol Qosimov birinchi murabbiyi Yuriy Gospodarchuk (chapda) va Sergey Arutyunovlar bilan.



MAYDONDA YANA BOLALAR

Kun ketidan o'tayotgan kun o'zining shiddatkor va g'animat damlarini paysalga solmay har bir daqiqadan unumli foydalanishga oshiqadi. G'izillab borayotgan vaqt zanjiri esa davrni davrga ulamoqda.

Kechagina Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan «Umid» bolalar sport majmuasi yana sportsevar bolalar bilan to'ldi. Ushbu musobaqa Konstitutsiyamizning 12 yilligiga bag'ishlab o'tkazildi. Musobaqaning nomi «Kichik olimpiada sport - shou» deb ataldi.

Biz tuman bolalar sportini


rivojlantirish jamg'arma raisi Anvar aka Nabiyevdan musobaqaning tashkillashtirish borasidagi ishlarni so'radik.

-Tumanimizning barcha bolalari ham sportni jon-dilidan sevadiganlardir. Maskanimiz har kuni ularning iqtidorini ochayotgandek bellashuvlar, maroqli uchrashuvlar bilan gavjum bo'lmoqda. Bugungi musobaqa ham tuman chempionlari va ularning izdoshlarining mahoratini ko'rikdan o'tkazishga qaratilgan. Maydondagi mini futbol, basketbol, voleybol va shaxmat-shashka bellashuvlari bugun g'oliblarni

saralashdan ko'ra, ularning iqtidori va qobiliyatiga ko'proq e'tibor bermoqda.

Ha, Mirzo Ulug'bek tumanida sportsevar bolalarning soni ortib borishiga asosiy sabab bor. Chunki ular uchun yaqindagina qad rostlagan ushbu majmua ular ixtiyorida. Barcha qulayliklar bor joyda albatta yuzlab imkoniyatlar yuz ochishiga biz ishonдик. Zero, yoshlarga bildirilgan katta ishonch jamiyatning ana shunday baxtiyor damlaridan boshlanadi.

Ma'mura YIGITALI qizi.



Chaqqonga chang yuqmas deganlaridek, sport gimnastikasida hozirdanoq ijobiy yutuqlarga erishib, kamol topayotgan Nigina Xaitova shahrimizdagi 256- maktabning 5 sinfida tahsil oladi. Shuningdek besh yildirki, musiqa maktabining fortepiano bo'limida ham o'qiydi.

Oilada yagona farzand bo'lgan Nigina ortiqcha erkliklar, injiqliklardan uzoq yashaydi. Buvisi Lolaxon opa, onasi Gulnora opalarning aytishicha, u bekorchilarni hecham yoqtirmas

-Men 7 yoshimdan sportning gimnastika turi bilan shug'ullanaman. Bu sport turidagi o'zgacha joziba doimo meni ruhlantirib yashashga o'rgatadi. Sport zaliga ilk qadam

jonnilidan sevgan murabbiyimdan o'rganib kelmoqdaman.

-Sport olamida qaysi gimnastikachilarga havas qilasiz?


-Maftunkor, sport gimnastikasining yulduzi Alina Kabayevaga havasim cheksiz. Uning mahoratli, jozibali, nafosatli har-bir usulini o'rganishga harakat qilaman.

GO'ZALLIK NIMA O'ZI?

ekan. Maktabdagi barcha darslardan a'lo baholarga o'qish bilan birga mustaqil ingliz va rus tillarini o'rganmoqda. Uning uchun kunlar g'oyatda mazmunli va maroqli o'tadi. Chunki mehnatsevar Nigina bolalikning har bir kunida ertangi kelajak izlarini ko'rib yashaydi. Kunning birinchi yarmida maktabga, ikkinchi yarmida mashg'ulotlarga muntazam qatnaydi.

Biz gimnastikachi bu qizaloq bilan katta bir musobaqa boshlanishidan oldin berilgan konsert dasturida tanishdik. O'zining mahoratli dasturi bilan bo'lajak sportchi shu kuni barchani hayratlar olamiga boshladi.

-Nigina, hozir siz ijro qilgan judayam chiroyli sport raqsini tomosha qildik. Bu raqslarni kimlardan o'rgandingiz?



q o ' y g a n vaqtimdayoq kelajakda men yaxshi inson bo'laman deb aytgandim. Shuning uchundir mening birinchi murabbiyim Rimma Tremboyevena doimo yaxshiliklar haqida so'zlaydilar. Mashg'ulotlardagi har bir harakatim va xatolarimni onalarcha mehr bilan o'rgatadilar. Hozir sizlarga namoyish qilgan usullarimni ham men jonkuyar shogirdlarini

-Nigina, siz go'zallikni qanday tushunasiz?

-Go'zallik menimcha sehri bir olamga o'xshaydi. Uning sehri insonni o'ziga bir qaratmasdan qo'ymaydi. Go'zallik nima o'zi, deb so'rganlarga mening javobim: har bir boladagi iste'dod takrorlanmas go'zallikdir, deb aytgim keladi.

-Kelajakda mashhur sportchi bo'lsangiz kerak-a?

-Kim bo'lishimdan avval dunyodagi eng yaxshi insonlar qatoridan o'rin olgim keladi. Bolalik davrimni behuda ishlarga sarflamasam, mehnatlardan qochmasam men albatta yaxshi inson bo'laman. Yurtimga sadoqatli, do'stlarimga vafoli bo'lish katta orzuimdir.

Yuqorida bejiz Niginani chaqqon deb atamadik. Uning har bir harakati ertangi kunining porloq, buguni quvnoq o'tishiga balki siz ham ishongandirsiz..

M. MADRAHIMOVA.

TEST SAVOLLARI

1. Real hujumchisi?

- A) Ronaldo.
- B) Mirjalol Qosimov.
- D) Rolan Gusev.
- E) Lui Saxa.



2. 2006 yilda futbol bo'yicha o'tkaziladigan jahon chempionatiga mezbon davlat?

- A) O'zbekiston.
- B) Fransiya.
- D) Germaniya.
- E) Italiya.

3. O'zbekiston milliy sport turi?

- A) Shashka.
- B) Shaxmat.
- D) Ko'pkari.
- E) Futbol.



4. Stol o'yini?

- A) Basketbol.
- B) Domino.
- D) Voleybol.
- E) Gandbol.

5. Dunyodagi eng katta futbol maydoni qayerda joylashgan?

- A) AQSH.
- B) Italiya.
- D) Germaniya.
- E) Braziliya.



Tuzuvchi:
Nuriddin HAYDAROV, talaba.

«BOYQO'RG'ON»NI O'RGANAMIZ

Sport turlari yana bir o'zbek milliy o'yini bilan boyidi. Ajdodlarimiz o'ynab, o'z aql-idroklari, zehn va kuchaytirib borgan «Boyqo'rg'on» o'yini qoidalari vatandoshimiz Berdiyev tomonidan qayta tiklandi. O'yinning qoidalari, kerakli taxta va toshlari firmalarda tayyorlanib, jonkuyar tashabbuskorlar uni ommalashtirishga kirishishdi. 2002 yilda O'zbekiston Madaniyat va sport vazirligi tomonidan sport turi sifatida tan olingan «Boyqo'rg'on» bo'yicha musobaqalar ham o'ta boshladi. 2003 yil Toshkentda ochiq turnir tashkil qilingan bo'lsa, shu yilning 20-24 noyabr kunlari poytaxtdagi «Baxt» mehmonxonasida «Boyqo'rg'on» bo'yicha O'zbekiston ochiq birinchiligi bahslari bo'lib o'tdi. Qo'shish, ayirish, ko'paytiruv va bo'lav amallari-asosida tuzilgan ushbu o'yin tez o'rganish imkoniyatining borligi bilan ham

yoshlarning e'tiborini tortmoqda.

Ochiq birinchilik erkaklar va ayollar o'rtasida o'tib, unda sakkizta viloyatdan jamoalar ishtirok etishdi. O'zaro davraviy tartibda o'tgan bahslarda jamoalarning yuqori uchligi quyidagicha bo'ldi:

O'g'il bolalar: 1. Toshkent sh. 2. Qashqadaryo-1. 3. Buxoro.

Qiz bolalar: 1. Qashqadaryo-1. 2. Toshkent viloyati. 3. Surxondaryo.

O'yin asoschilari «Boyqo'rg'on»ning qoidalari bitilgan kitobcha, taxta va toshlarini hamda o'rgatish jarayonini barcha vatandoshlarimizga taklif etadi.

Hamkorlikni istaganlar quyidagi telefon raqamlariga murojaat etishlari mumkin: 169-44-46, 155-29-87.

Xurshida BOYMIRZAYEVA,
poytaxtdagi

248-maktabning 11-sinf o'quvchisi.



«O'QITISH IKKI BARAVAR O'QISI DEMAKDIR»

Aziz bolajonlar, ustoz-murabbiylarimiz bizni o'qitish uchun o'zlari bizdan ikki hissa ko'proq o'qishlarini bilasizmi?

O'qitishning ilg'or samarali usullarini o'zlashtira borib, an'anaviy usullardan ijodiy foydalanishlarini, qo'yingchi, tinimsiz izlanishlarini, bilim va mahoratlarini oshirib borishlarini-chi?

Bundan ko'zlangan maqsad - bilimli, ilimli, ijodiy va mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Yangiyo'l shahridagi 17-umumta'lim maktabida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan o'qituvchilarning maqsadlari ham o'quvchilarini jismonan sog'lom, ma'nan barkamol qilib kamol toptirishdir. Xalq ta'limi a'lochisi I.Mahmudova A.Boles, ka-

Ularning sport bilan muntazam shug'ullanishlari, turli hunar va fan to'garaklarida bilimlarini boyitishlari, kasb-hunar sirlarini o'rganishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Shu bois ham o'quvchilari fan olimpiadalarida qatnashib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan bu maktabning nomi ilg'or o'quv maskanlari qatoridan tushmaydi. Bunday yutuqlarga erishishda gimnastika to'garagi rahbari

rate to'garagi rahbari barkamol bo'lib kamol topayotganlari ham bejiz emas. **ASALCHI amaki.**

bichish-tikish to'garagi rahbari U.Yo'ldoshevalarning ham xizmatlari beqiyosdir. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sa'y-harakatlari - tufayli maktab o'quvchilari Yangiyo'l shahar maktab o'quvchilari orasida mini futbol bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqada faxrli 3-o'rinni egalladilar.

Qaysi bilim dargohining o'qituvchilari o'z kasbiga sadoqatli, bolalarga mehrlil, intiluvchan va izlanuvchan bo'lsalar, o'sha yerda yutuq va muvaffaqiyatlar mo'l bo'ladi. Maorif a'lochisi ko'krak nishoni bilan taqdirlangan oliy toifali o'qituvchi N.Andarjonova, G.Jechkovskaya, ijodkor o'qituvchilardan S.Tojiboyeva, R.Abdurahmonova, D.Latipova, B.Rasulova, O.Komilova kabi tajribali ustozlar mehnat qilayotgan mazkur maktabning o'quvchilari bilimdon va zukko, sog'lom va barkamol bo'lib kamol topayotganlari ham bejiz emas.



YURAGIMDA VATAN MEHRI

Elbekjon Alisher Navoiy nomli Nafis san'at litseyida tahsil oladi. Izlanuvchanligi, bilimga chanqoqligi bois tengdoshlari orasida ajralib turadi. Ona-vatanga, muqaddas zaminga, tabiatga bo'lgan mehri she'riy satrlarga muhrlashga intiladi. Keling, aziz bolajonlar, bu tengdoshingizga ijodning sermashaqqat yo'llarida barakali qalam tebratishiga birgalikda oq yo'l tilaylik.

VAFODOR DO'ST

Do'st yaxshidir dunyoda,
Qadr-qimmatingga yetsa.
Yaxshi-yomon ishlaringda,
O'zini baxshida etsa...



ONA VATAN

O'zbekistonim - bog'u bo'stonim,
Yashnab ochilgan hur gulistonim.
Sen mehribonsan, tenggi yo'q Vatan,
Tuprog'ing o'pib, ko'zimga surtay,
Men uchun aziz, azizdur Vatan.

Elbekjon RO'ZIMATOV,
Toshkent shahar, Sobir Rahimov
tumanidagi 29- maktabning 4-sinf o'quvchisi.

KICHIK QALBNING KATTA DUNYOSI

Oydin qishloqda yashaydi. Har tongda G'o'bdintog' ortidan mo'ralaydigan oftob, bahor kezlari sharqirab oqadigan soylar yuz bir xil dala gullarining isi gurkirab yotadigan sarhadsiz dashtlar, Sariqipchoqning musaffo havolari bu qizaloqning yuragiga she'r havasini solgan. U fikrlarini sodda, samimiy so'zlarda bayon etadi.

Bahor atlas yopinchi'g'i bor kelinchakka o'xshaydi, deydi u Ko'klam she'rida.

Kuz xuddi saxiy ona kabi hammaga meva uzataveradi, deydi Oltin fasl to'rtligida. Quyoshjon she'rida esa Oftob uyimiz yonidagi terakni yaxshi ko'radi, doim o'shaning ortida turib men bilan bekinmashoq o'ynaydi, deya tugallaydi. Shunga o'xshash go'zal tashbehtar bor uning bitiklarida.

Oydin hali juda yosh bo'lsa-da, atrofga tiyrak ko'z bilan qaraydi. Kichik qalbidagi katta dunyoga suyanib yashaydi. Shu dunyoning go'zalliklari unga ilhom va zavq baxsh etadi. Biz Oydinga yaxshi yozmoq uchun yaxshi bilim olish va ko'p mehnat qilish kerak, degimiz keladi.

Gulchehra JAMILOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

ONAM ALLASI

Alla bolam, allayo
Qizil gulim allayo.
Chorbog'imda ochilgan
Bulbul qushim allayo.
O'rmonda ayiq uxlar,
Alla bolam, allayo.
Fog'larda kiyik uxlar,
Sen ham uxla, allayo.
Alpomishim, polvonim,
Alla bolam, allayo.
Oybarchinim, Oydinim,
Alla bolam, allayo.
Buvijoning sog' bo'lsin,
Alla bolam, allayo,
Har kuning yorug' bo'lsin,
Uxla bolam, allayo.

QISHLOG'IM

Odamlar hasharga shaylanar,
Har hovli gultzorga aylanar.
Bu joyda yashaydi yaxshilar,
Qishlog'im, suyukli makonsan.

Bag'ri keng zavqi-la to'lgan,
Shu erk bois toleyi kulgan,
So'zi keskir, qaddi tik bo'lgan,
Qishlog'im, ozod va go'zalsan.

Oydin AZIMOVA,
Samarqand viloyati,
Jomboy tumanidagi
10-maktab o'quvchisi.

Yangi kitob



Qo'limda Shahnozaning mittigina kitobchasi... Sekin varaqladim. Bir maromda tizilgan jumlar, so'zlar e'tiborimni torta boshladi. Beixtiyor asiriga aylandim. Hikoyalarda fikr, g'oya hamma-hammasi uyg'un. Men tushundimki, Shahnoza o'zi bilgan, o'zi ko'rolgan narsalarni qalamga oladi, qog'ozga tushiradi. Yozish uslubi ham o'ziga xos.. Demak, yosh ijodkor o'z yo'nalishini, yo'rig'ini topmoqda.

QUTLOG' QADAM

Shahnozaning o'kinch nomli hikoyasi qahramoni Natalya buvi aslida hayotda hammaga o'xshagan odam. Shahnoza uning timsoli orqali hayotni ulug'laydi, insonlarni mehr-oqibatga chaqiradi, beparvolikni qoralaydi. Faqat vujudi bilan his qiladi o'kinchni. Bu uning ko'p kitob o'qiyotgani, izlanayotganidan ham dalolat.

Ishonamanki, Shahnozaning ertangi kuni porloq. Faqat uning adabiyotga bo'lgan ixlosi, ishtiyoqi so'nmasa bas.

Men iqtidorli yosh ijodkor Shahnoza Tursunovaga ijodiy kamolot tilayman.
Faxriddin HAYIT.

Bo'sh vaqtlarida karate yoki futbol to'garaklariga qatnashadigan tengdoshlaringiz juda ko'p. Ular bilan suhbatlashsangiz, kelajakda Bryus Li yoki Jeki Chandek mashhur sharq kurashlari ustasi, Mirjalol Qosimovdek

chertishni juda yaxshi ko'radi.

-Karate bilan shug'ullanish, doira chertish mening eng sevimli mashg'ulotlarim,-deydi Behro'z.-Kun tartibimni to'g'ri taqsimlaganim tufayli, bu mashg'ulotlarim o'qishimga aslo

YULDUZLARGA HAVASMAND BEHRO'Z

dovrug'li futbolchi bo'lish orzusida ekanliklarini faxr bilan aytishadi.

Tengdoshingiz Behro'z Rahimov ham ana shunday tengdoshlaringizdan. U hozirda poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 284 - maktabning 6 - «G» sinfida a'lo va yaxshi baholarga o'qimoqda. Darsdan bo'sh vaqtlarida karate to'garagiga qatnaydi, ota-onasiga uy yumushlarida ko'maklashadi. Milliy cholg'u asbobi - doira



xalaqit bermaydi. Shuningdek, karate ustalari va taniqli estrada yulduzlari suratlarini yig'ishni yoqtiraman. Orzuim - ulardek elga tanilishdir...

Astoydil qilingan mehnat o'z samarasini berishiga, Behro'zjon ham kelgusida tongdek oppoq orzulariga albatta erishishiga aminmiz.

Erkin XOLBOBO.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

U nabirasi Boysunqurning o'g'li Alovuddavlani Ulug'bek Mirzodan ortiqroq sevar, bobosi o'rniga uni podshoh qilish niyatini ko'pdan pinhon saqlar edi. Bir necha yil muqaddam Shohruh og'ir xasta bo'lgan paytda Gavharshodbegim davlatning butun idorasini o'z qo'liga olgan, hatto Alovuddavla ismiga xutba o'qishni talab etgan edi. Shohruh o'zi taxtni o'g'li Muhammad Jo'qiga topshirishni o'ylar, ammo bu orzusi uning faqat ko'nglidagina, negaki malikadan hayiqar edi. Malika butun hokimiyatni egallagan. Hatto devon ishlariga ham Muhammad Jo'qini yaqin keltirishni istamasdi, faqat Alovuddavla va Abdullatif ishtirok etardilar. Muhammad Jo'qi Shohruhdan ikki yil muqaddam vafot etdi. Mana endi Shohruh vafot etganda uning o'g'illaridan yolg'iz Ulug'bek hayot. Nabiralar esa behisob, har biri taxtga changal solishga tayyor.

Shohruh jon taslim etganda jabhada Gavharshodbegim va Abdullatif bor edi. Malika Abdullatifni chalg'itish uchun uni bosh sardor tayin qilib, bosh tug' ostiga qo'ydi va undan yashirin holda Hirotga, Alovuddavla chopar yubordi. Buni payqab qolgan Abdullatif darhol bibisini hibis etmoqni buyurdi. Lekin yetib kelgan Alovuddavla bibisini ozod qilib, Abdullatifning o'zini hibsga oldi. So'ng Shohruhning jasadi Hirotga keltirildi.

Hirotida dafn marosimi temuriylar saltanatining an'anasiga muvofiq zo'r tantana ila o'tkazilib, Gavharshodbegim madrasasiga muvaqqat dafn etildi. Kichkina Alisher bu voqealarning guvohi edi, u saroydagi va shahardagi g'ovurg'ovurlarni mushohida etar, otasining kayfiyatidagi o'zgarishlarni sezar edi. Shoh va sultonlar orasida ota va bola, bobo va nabira taxt uchun bir-birlariga qilich solishga tayyor ekanliklaridan uning pok ko'ngli larzaga kelar edi: «Bu nechuk buzuqlik», derdi kuyunib ichida.

-O'g'lim! -dedi otasi Alisherni vaziyatdan jindak ogohlantirmoq niyatida. - Temur sulolasi xotimaga yetdi, shahzodalar o'zaro qirg'in boshladilar, bu olov ichra bizga omonlik yo'q.

Qishning izg'irinli kuni, qor uchqunlab yog'moqda, G'iyosiddin bahodir naqshkor kichik mehmonxonada Mirsaid ila suhbatlashib o'ltirar edi. O'rtadagi lang'illagan cho'g' to'la manqaldan atrofga yoyilgan issiqlik uydagilarga orom baxsh eturdi.

Telpagini qoshlariga qadar bostirgan, uzun guppi choponda, yong'oq o'ynab qaytgan Alisher ishqiy va so'fiyona she'rlarga mohir bir turkigo'y shoirning g'azalini o'zicha shivirlab o'ltirurdi.

-Qani, o'qing jiyani, balandroq

ALISHERNING YOSHLIGI

o'qing, biz ham eshitaylik, - deya so'radi tog'asi Mirsaid.

Alisher yalt etib tog'asiga qaradi.

-Shoirsiz, donishmandsiz, siz o'qisangiz yarashadur. Men g'alat o'qishdan qo'rqurmen.

Moshkichiri soqolli, o'siq qoshli Mirsaidning yuzlariga tabassum yoyildi.

-Yurak hissiyot va zavqqa to'la, ammo she'r aytmoq uchun ifrot, ilhom



kerak, jiyani. Goho ermak uchun qalam tortib qo'yamen. Mana mening fahmimda sen shoir bo'lursen, zehning o'tkur, idroking baland, -der ekan go'yo Alisherning qalbiga kirmoqchidek tikilib qarardi tog'asi. -Fors shoirlari yuksak tuyg'ular, teran fikrlar ila to'la ajib she'rlar yaratmishlar. Bizning turkigo'y shoirlar ham ularga ergashib, forsiy she'rlar ijod etishni odat qilib olmishlar. Turkiston o'lkamiz vodiylari, sahrolari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk-o'zbekdur. O'zimizga xos odatlarimiz, an'analarimiz, qo'shiqlarimiz, kuylarimiz, dostonlarimiz, ertaklarimiz bor. Bular cheksiz boyligimiz. Ayniqsa, tilimiz go'zal, shirin va rangli. Jiyani, o'z yo'lingni topsang bas.

-Ko'pchilikning ko'nglidagini topib gapirursiz, Mirim, shu odatimizni suyardurmen, -dedi mamnuniyat ila G'iyosiddin Kichkina. -Lekin Alisher avvalo ijtihod ila o'qisin, bilimdon bo'lsin. Ta'bi yaxshi; balki she'riyat bulog'ini topur...

Ko'chadan bolalarning shovqinini eshitib qolgan Alisher sharta irg'ib turib ko'chaga yugurgisi keldi-yu, lekin mutolaasini tark etmadi.

G'iyosiddin Kichkina ila Mirsaid suhbatini davom etdi.

-Shohruh Mirzodan so'ng nabiralar taxt talashib ko'targan g'avg'olar aro xalq, yurt tamoman unutilmish, - deya shoshmasdan so'zlardi Mirsaid. -Yolg'iz Ulug'bek Mirzoga sohibqiron bobolari davlatiga munosib vorisdirlar. Ul zotni ilm dunyosida, ayniqsa, falakiyotda inkishof nuqtasiga yetmish bir olim, desak xato

bo'lmag'ay. Ammo afsuski vazirlari, beklari bul adolatpanoh sultonning qadriga yetmaydurlar, barchasi johildur.

-Butun falokat shundadirki, bek, -dedi G'iyosiddin Kichkina dard ila. -Ulug'bek Mirzo falakni zabt etmish, olim, donishmand sultondur, ammo... -U gapidan to'xtab mutolaaga band Alisherga ko'z tashlab qo'ydi.

-Ha, shahzodalar hazratning oyog'iga bolta urmasalar deb qo'rqamen, -deya G'iyosiddin ayta olmagan fikrni shoir aytib qo'ya qoldi. -Qalb, vijdon, aql degan narsa topmaysiz bu shahzodalarning birortasida. Bular zamonani mushkullashtirib, loyqalajib ketmoqdalar.

Shoir ulus ahvolining og'irligi, xalqning kambag'alligi, qashshoqligi, g'aniylar va zangilarning aysh-ishratga mukaddan ketganliklari, podshoh bibisi Gavharshodning faqat ulus tillosini yig'ishda mohirligi, sipohiyar esa xalq nonini og'zidan yulishni o'ylashi haqida uzoq gapirdi. Shoirning qiyofasi, tovushida ichki bir ezilish, ruhiy siniqlik ko'rinardi.

-Aytganlaringizning barchasi haqiqat, -dedi sekin tovushda G'iyosiddin Kichkina. -Ulusimiz buyuk, xalqimiz qobiliyatlidir. Biz faqat xalqqa suyanmog'imiz lozim. Nogoh bir narsa esiga tushgandek shoshilib o'rnidan qo'zg'aldi. -Qani, marhamat, masjidi jome'ga yursinlar, juma nomozini birga o'qiylik.

Alisher dik etib o'rnidan turib ularga salla-choponlarini tutdi...

Bahor. Hammayoq nafis gullar, mayin ko'katlar ila ajib bir chiroy kasb etgan. Serdaraxt, ko'kalamzor Hirot gullarga ko'milgan. Daryolarning to'lib-toshgan chog'i. Unda-bunda, xiyobonlarda shirin xayol, ilhom og'ushida she'r yozib o'ltirgan va she'riyat mutolaasidan zavq olayotganlar ham bor edi. Ammo bu osoyishtalik uzoqqa bormadi.

Shahzodalar o'rtasida dahshatli janglar, qonli urushlar borgan sari zo'rayar edi. Hirot g'alayonda, fuqaro tashvishda. Shahardagi beklar, amaldorlar orasida Abulqosim Boburning yashirin tarafdorlari ko'p edi.

G'iyosiddin Kichkina kundagidan ilgari shoshilib uyga qaytdi.

-Ahvol yomon, -deya xotiniga tushuntira boshladi, -barcha ulug'lar, beklar, zanginlar shahardan pinhon chiqib keta boshladilar. Alisher qani?-deb so'radi u qarshisiga kelib o'ltirgan xotinidan. Yo'l tadorigini ko'rmak lozimdur.

-Nima gap o'zi?-deya so'radi hayratdan qotgan Gulbegim.

-Podshoh jangda, Abulqosim Bobur bostirib kelmoqda, bir tomonda Abdullatif. Hirotan bosh olib ketmasak, jon saqlamoq mushkuldir, uqdingmi?

-O'lib bo'ldim-a, hali jang, hali saroyda g'avg'o, -dedi kuyunib Gulbegim va darhol uy-joyini yig'ishtirish harakatiga tushdi.

OYBEK

Yarim kecha. G'iyosiddin bahodir, xotini va Alisher safar kiyimida to'la xurjunlar ortilgan otlarda yo'lga tushdilar. G'iyosiddin Kichkina avvalroq yo'lga chiqqan yaqin aqrobalaridan qolib ketmaslik uchun ularga yetib olishga shoshar edi.

Chol va kampir oq yo'l tilab qoldilar.

Bir necha yaqin qarindoshlari, urug'-aymoqlari ila Iroq tomonga yo'l tutgan G'iyosiddin oilasi safar mashaqqatini torta-torta, oxiri yarim tunda Taft shahrida to'xtadi.

Bu yerning issiq havosini bolalar pisand qilishmas edi. Alisher tong otgan hamon bir guruh tengqurlari ila darhol ko'chaga otildi. Ular to'xtagan dargoh yaqinidagi masjid atrofini aylanib, xonaqohga ham bosh suqдилar.

Xonaqohda mutolaa ila mashg'ul tanho o'ltirgan, katta sallali, keng oq ko'ylakli chol bolalarning chuvvos shovqinini eshitib, kitobdan bosh ko'tardi.

-O'g'illarim, so'zlangiz, qaydin keldingiz! -deya so'radi chol.

Alisher darhol o'rtoqlariga qarab, barchasining jim qotganini va birontasining javobga og'iz ochmaganini fahmlagach, cholga yaqin borib nazokat ila ta'zim qildi.

-Ko'p aziyat chekib Hirotan keldik, taqsir! Qari shohimiz vafoti tufayli shahzodalar aro g'alva... -Bir on sukutda qoldi Alisher va sukutdan so'ng tetikroq tovush ila ilova qildi. -Qirg'in boshlanib ketdi.

-E-e-e... -Soqolining uchini tishladi chol, bir zum sukut qildi. -Hm-m... Shoh vafot qildi, shahzodalar bir-birining kallasini uchirmoqda, denglar, -deya istehzoli jilmaydi va ko'zlarini qisib yana dedi: -Sho'x o'g'lon, barchangiz turkiy ekansiz. Balli, o'g'illarim. Maktabga borurmaysiz, o'g'lon?-deb so'radi so'ngra u Alisherga murojaat etib.

-Borurmen, «Qur'oni sharif» ni o'qiydurmen, -deb javob berdi Alisher jiddiyat ila.

-Ne yergacha o'qubsiz?

-Mulk surasigacha.

Chol Alisherni o'ziga yaqinroq chaqirib yelkasiga qoqdi.

-Qulluq, taqsir! -deya Alisher qizarib, ikki qo'li ko'ksida, ta'zimga egildi.


-Bo'tam, hovuzdan suv keltiring, -dedi chol, bo'sag'a oldidagi obdastani imo bilan ko'rsatib.

Alisher lahzada obdastani to'latib, joyiga qo'yarkan, chol bolaning tetikligi, ko'zlaridagi tuyg'unlik, ko'nglidagi samimiyat mavjidan zavqlangan, quvongan edi.

-Ofarin, kelib turing, o'g'lim, -dedi mehr va mayinlik ila.

(Davomi bor.)

QORBOBONING NASIHATI



Kirib keldi Yangi yil,
Quvonch to'la yaxshi yil.
Bezattildi archamiz,
Shodu xurram barchamiz.

Mehmon bo'ldi Qorboba,
Oppoq soqol chol-bobo.
Yonida Qorqizi bor,
Qopida sovg'a bisyor.

Sovg'a-salom ulashdi,
Biz quvnoq o'g'il-qizga.
So'ngra yaxshi o'qing, deb,
Nasihat qildi bizga.

Munira YO'LCHIBOYEVA,
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi
25 - o'rta maktabning
6 - «B» sinf o'quvchisi.

XUMO QUSHIM



Xumo qushim uchaqot,
Samolarni quchaqot,
Sen bor, asoyishta yurt,
Sen bor, bizga omad yor.
Yuksak parvoztaringga,
Bizlar havas qilamiz.
Sen bor yurtida tinchlik bor,
Buni yaxshi bilamiz.

Muhayyo OLLOBERGANOVA,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi
17-umumiy o'rta ta'lim maktabining
4- «B» sinf o'quvchisi.

Bizning to'garak

Assalomu alaykum, singlim Umidaxon! Siz boshchiligingizda gazeta xodimlarining faoliyatidan qalban faxrlanib yuribmiz. Ijodiy yutuqlaringiz, bolalar nashrida ko'tarilayotgan kattalarni ham qiziqtiradigan muammo va xursandchiliklardan xabardor bo'lishga oshiqamiz. Olloh Siz - kasbdoshlarimizning omadini bersin.

Umida, men Toshkentda o'qib yurgan kezlaringda ustozlar boshqargan mushoiralar, adabiy anjumanlardan juda katta taassurotlar olganman. Ayniqsa, Mirtemir domla, Zulfiya opa, Saida Zunnunova, Turob To'la, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov

MUHARRIRGA MAKTUB

boshqargan yozuvchilar uyushmasida o'tkazilgan qizg'in adabiy darslar menda o'chmas xotira bo'lib qolgan. Bu hammasi sizga ma'lum gaplar. Shunday bo'lsa ham, hozir ularni chuqur xo'rsinish bilan eslagim keldi. Balki bu xotiralar o'sha adabiy davrlarni sog'inganim-dandir?..

Shuning uchun ham Marg'ilonda shunday kichikroq to'garak ochdim. Mening harakatimni Marg'ilon shahar hokimligi qo'llab-quvvatlab, yosh iste'dodlarni tarbiyalashimda

bosh-qosh bo'lib kelmoqda. Jahon Otin Uvaysiy nomli ushbu to'garak Xalqaro oltin meros xayriya jamg'armasi shahar bo'limi hamda markazi qoshida faoliyat ko'rsatmoqda.

Sizga batafsil yozishimning sababi, to'garak ishtirokchilarining she'rlarini «Tong yulduzi» gazetasida goh-gohida berib borishingizni iltimos qilishdir. Sizga kamoli ehtirom bilan

Ismoil MAHMUD,
O'zbekiston Yozuvchilar va
Jurnalistlar uyushmasi
a'zosi.

KIFOB

Kitobda yashaydi topishmoqlar ham,
Baxil hamda saxiy yashaydi unda.
Bitilgan ertaklar yurakka matham,
Ertak tinglab uxlar bolalar tunda.
O'qiymiz, sevinchla olamiz orom,
She'r va hikoyalar bizni etar rom.
Ertaklar bizlarga yaxshilik tilar,
Kitoblar doimo boshimiz silar.

ONAJONIM

Mehribonim dunyoda,
Onajonim o'zingiz.
Nur sohasiz ziyoda,
Misli oftob yuzingiz.
So'zlaringiz muloyim,
Onajonim yuragim.
Sizga o'xshayman doim,
Omon bo'ling tilagim.

Xumoraxon YO'LDOSHEVA.

SUV

Suvdir hayot chirog'i,
Daryo, dengiz irmog'i,
Suvsiz hech hayot bo'lmas,
Borki suv borliq so'lmas.
Uni asraylik har dam,
Udir yurakka matham.
Suvdir hayot chirog'i,
Daryo, dengiz irmog'i.

VATAN

Fuprog'ingda o'sgan barcha bobolar,
Uvaysiy, Nodira gul dilrabolar.
Doim qalbidasan, ey aziz Vatan,
Senga fido bo'lgay jonimiz va tan!
Nodira JASURALIYEVA.

Jahon Otin Uvaysiy nomli to'garak a'zolari, Marg'ilon shahridagi
Amir Temur nomli 8- umumta'lim maktabining 5- «A» sinf o'quvchilari.




Savollar:

Atirgul, Karnaygul,
Gulibeor, Lola, Kala,
Ra'nogul, Rayhon,
Pechakgul, Itog'iz,
Safsargul, Sadarayhon,
Chinnigul,
Gultojixo'roz.

Tuzuvchi:

Gulhayo SANAQULOVA,
Samarqand viloyati,
Oqdaryo tumanidagi
23-maktabning
8-«B» sinf o'quvchisi.



Ona yurtim - oltin beshigim
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 11167

Buyurtma N: J 829

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek
ESHCHANOV.
Navbatchi:
Gulyuz
ARIFJANOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
144-21-75

Tel/ faks:
(99871) 144-24-45